

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИДА КРЕТИВЛИК КОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЈЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna

PhD. Navoiy davlat pedagogika instituti

E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolaning o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va o‘zini-o‘zi namoyon eta olish, uning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratilishi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, ijodkor, intellektual, fantaziya, mustaqil fikrlash, ijodkor kreativ qobiliyatlar, ijodiy faoliyat, stereotip usullar.

Annotation. This article discusses how a preschooler’s self-development and self-expression can lay the groundwork for his or her creative abilities.

Keywords: creativity, intellectual, fantasy, independent thinking, creative creative abilities, creative activity, stereotypical methods.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о том, как саморазвитие и самовыражение дошкольника может заложить основу для его творческих способностей.

Ключевые слова: творчество, креативность, интеллектуал, фантазия, самостоятельное мышление, творческие творческие способности, творческая деятельность, стереотипные приемы.

Maktabgacha ta’lim bolaning jamiyat bilan bog‘lashning ilk qadamlari hisoblanadi. Shunday ekan, bolalarni ta`lim-tarbiyaga to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishda, eng asosiysi jamiyatga foydasi tegadigan shaxs qilib yetishtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Xalqaro tajribalarda ko`rsatilishicha, bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha ta`lim yoshiga to‘g‘ri kelishi o‘z isbotini topgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga va o‘z fikrlarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligidan qat’iy nazar qo‘rmasdan fikrini ochiq bayon eta olishga o‘rgatish zarur. Bu esa kelajakda uning mustaqil ravishda katta ishlarni boshlashi va o‘z g‘oyalarini amaliyotga qo‘rqmay tatbiq etishi uchun ilk qadam bo‘la oladi. Hozirgi zamon standartlarini amalda tadbiq etish boladan nafaqat yuqori va doimiy izlanishni, balki o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Bolaning kreativligi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqishi va yaxshilash hammaga ma’lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bolaning kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Har bir bolaning

o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va o‘zini-o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga ega ekanligi bilan bog’liq.

Bola o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘rganish, o‘z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u astasekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bolalarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun uzoq yillar davomida poydevor qo‘yib boriladi va ma’lum faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantiriladi. Bunda bolaning o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Bola ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda alohida e’tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, bolaning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda kreativ tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. Bola o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishslash, mustaqil o‘rganish, kreativlikka nisbatan ehtiyoj sezadi.

Kreativlik ijodiy, intellektual qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi, hayot tajribasiga nimadir yangilik olib kirilishi, yangi muammolarni qo‘yish va hal etishdagi betakror g’oyalarning tug’ilishi, muammoni hal etish va farazlarni shakllantirishda tafakkurning stereotip usullaridan voz kechish qobiliyati bo‘lib ta’lim jarayoni samaradorligi ham ko‘p jihatdan uning taraqqiyot darajasiga bog’liqdir. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda ham ularga xos bo‘lgan ijodiy yoki kreativ xususiyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ qobiliyatlar rivojlanishi uchun zamin bo‘lgan sifatlarning mavjudligi va mustaqil fikrlash ko‘nikmasining taraqqiyoti bolaga ta’lim jarayonidagi turli vaziyatlarga muvaffaqiyatli moslashish, o‘zgargan holatlarni anglay olish hamda o‘zining bilish jarayonlari va xulq-atvorini unga mos tarzda yo‘naltira olish imkonini beradi. Mutaxassislarning fikricha, bolalar kreativligining rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

- ijodkor kishilar bilan muloqot ko‘laming kengligi;
- taqlid uchun namuna bo‘la oladigan kattalar olamining mavjudligi;
- ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning demokratik uslubga ega ekanligi;
- bolaga hissiy jihatdan o‘zini namoyon etish uchun imkoniyat berilishi;
- kattalarning faol va arboblarga xos maqomi;
- bolalarni mustaqil mehnatga erta jalb qilinishi;
- turli to‘garaklarga jalb qilish orqali ijodiy faoliyatga yo‘naltirish;
- o‘z tajribasidagi yangi ma’lumotlarni bilishdan quvonishi;
- bolalarning tadqiqotchilik ishiga ijobiy munosabatda bo‘lishi;

- bolalar faoliyatidagi yutuqlarni o‘z vaqtida rag’batlantirish;
- intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tegishli mashg’ulotlar bilan shug’ullanishi uchun shart-sharoit yaratish va boshqalar.

Kreativlikning rivojlanishiga ijobjiy ta’sir etuvchi omillar bilan bir qatorda uning taraqqiyotiga salbiy ta’sir etuvchi holatlar ham mavjud. P.Torrens bolalar kreativligining rivojlanishi va namoyon bo‘lishini tormozlovchi shart-sharoitlarni quyidagicha tasniflaydi:

- muvaffaqiyatga asoslanish (bola noto‘g’ri javob berishdan qo‘rqadi), tavakkal qilishdan qochish;
- tengdoshlar fikriga asoslanish (boshqacha, nooddiy bo‘lib ko‘rinishdan qo‘rqish);
- atrofdagi kattalarning kreativlikni normadan og’ish sifatida tasavvur qilishi;
- savol berishni taqiqlash va tashabbuskorlikni cheklab qo‘yish;
- bolaning o‘yin va mehnat faoliyatidagi erkinligini cheklab qo‘yish.

Bolalardagi ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmay, aksincha taraqqiy etishini rag’batlantirish uchun pedagog-tarbiyachi, psixolog va ota-onalardan tizimlashtirilgan tamoyillariga rioya qilishlari tavsija etiladi:

- bolalarning har qanday ijodiy faolligi ko‘rinishlariga e’tiborli bo‘lishi;
- har bir tarbiyalanuvchiga nisbatan ichki munosabatni o‘zgartirishi;
- pedagog-tarbiyachi bolalardagi ijodkorlikni nafaqat o‘yin yoki o‘quv faoliyatida, balki har qanday faoliyat jarayonida ham ko‘ra olishni o‘rganishi;
- tarbiyalanuvchilarda yetarli darajada yuqori o‘ziga-o‘zi baho berishni shakllantirishga harakat qilishi;
- ota-onsa, psixolog va pedagoglar ham o‘zining kreativligini rivojlantirishi zarur.

Bolalardagi kreativlik sifatlarini rivojlantirish yuzasidan Devid Lyuis tomonidan ota-onalar uchun amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- bolalarning savollariga chidam bilan to‘g’ri javob bering va ularning savollari hamda fikrlarini jiddiy qabul qiling;
- bolalarga o‘z qiziqishlari bilan shug’ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajrating. Agarda ijodiy jarayon bilan bog’liq bo‘lsa, u holda bolani xonadagi tartibsizlik uchun koyimang;
- bolalarning imkoniyatlariga mos yumushlarni buyuring. Ularga shaxsiy rejalarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko‘maklashing;
- bolalarga faoliyatda yuqori natijalarga erishishlariga yordam bering;
- bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgating. Sevimli mashg’ulotini tashkil etishi uchun zarur buyumlar bilan qurollantiring;

- turli voqealarni o‘ylab topishga, fantaziya qilishga majburlang, bu jarayonda unga yordamlashing;
- uning borliqni anglashiga yordam beradigan amaliy tajribalarni o‘ylab toping.

Xulosa qilganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish omillari bolaning ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo‘nalishi va o‘zini boshqara olishida ko‘rinadi va uni o‘zining faolligi, o‘zini-o‘zi boshqara olishi bilan yetuk shaxsga aylanayotganini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibragimov X.I. va b. Pedagogik psixologiya. Toshkent- 2009
2. F.R. Qodirova, SH.Q. Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur” -T., 2019
3. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo‘llanma.
4. Haydarova Shahlo Narzullayevna. Mehribonlik uyi bolalarinining ijtimoiy hayotga moslashuv omillari. “UZACADEMIA”SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 30-dekabr, 2020-yil. 3-qism. 163-165.
5. Хайдарова Шаҳло Нарзуллаевна. Мехрибоанлик уйи тарбияланувчиларини оиласвий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик асослари. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. VOLUME #1, ISSUE #1, 2020/XI. 149-154.
6. Xaydarova Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 23-27.
7. Хайдарова Ш.Н. ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ ВОСПИТАННИКОВ ДЕТСКОГО ДОМА К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. Colloquium-journal №8 (95), 2021. Czesc 2. (Warszawa, Polska)